
"BO'STON" VA "GULISTON" MAHALLALARIDA ELEKTR TA'MINOTI YAXSHILANMOQDA

Farg'ona shahrining "Bo'ston" va "Guliston" mahalla fuqarolar yig'inlarida loyiha asosida past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini yangilash hamda modernizatsiya qilish ishlari davom etmoqda.

Loyiha asosida "Bo'ston" mahallasi hududiga 282 dona yangi temir-beton tayanchlarini o'rnatish, 7,1 km uzunlikdagi 0,4 kVli yangi elektr uzatish kabel tarmog'ini tortish hamda 4 dona transformator punktini quvvatini katta quvvatlisiga almashtirish, yangilash ishlari rejalashtirilgan.

"Guliston" mahallasida ham 72 dona temir-beton tayanchlarini o'rnatish hamda tarmoqlarini yangilash ishlarini bajarish belgilangan. Ayni vaqtda, hududlarga yetkazilgan yangi temir-beton tayanchlariga kabel tortish ishlari olib borilmoqda.

2023-09-09 12:10:16